# YOSH OILLARNING IJTIMOIY ADAPTATSIYASI MUAMMOLARI

Qarshiboyeva Dilfuza -JDPU, Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi (ilmiy rahbar)
Avazova Gulshan- JDPU, Psixologiya (amaliy psixologiya) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada yosh oilalarning dastlabki hayot siklida uchraydigan ayrim muammolar hususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, yosh oila, ijtimoiy adaptatsiya,sotsalizatsiya.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli bahtiyor his etadi.

Yosh oila deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya kabi rivojlangan Yevropa va Amerika davlatlarida, Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida (Yaponiya, Koreya kabi) nikoh yoshi yil sayin ortib, ayrim mamlakatlarda bu raqam 30 yoshdan ham o'tib ketmoqda. Juda erta turmush qrish qanchalik oila va uning barqarorligi bilan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lsa, kech turmush qurish ham qator salbiy asoratlar va moddiy-ma'naviy qiyinchiliklar bilan, eng muhim er va xotinning salomatligi holati, tug'ilajak zurriyodning sog'lom tug'ilishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- *juda yosh oila* – nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
- *yosh oila* – 5 yildan 9 yilgacha;
- *o'rta oilaviy hayot muddati* – 10 yildan 19 yilgacha;
- *katta oilaviy hayot muddati* – 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davrida muaysyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi:

- *oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta'minlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;*
- *vaqtni yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning cheklanganligi;*
- *yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;*
- *iqtisodiy qiyinchiliklar.*

O'tkazilgan tadqiqotlardan yana shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, yosh oilaning tinchlik-totuvchilikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri – qaynonalar bilan yangi kelinchakning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitagina o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinchakni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish choralarini bilmaydi. Ya'ni, qaynona bilan kelin o'rtasida o'ziga xos rashkka o'xshash munosabatlar paydo bo'ladiki, bu holat qaynonaning kelinga nisbatan adolatli, bag'rikeng inson sifatida ish tutishiga halaqit beradi.

Sodir bo'layotgan nikoh ajrimlarining sabablari orasida aynan qaynona bilan kelin o'rtasidagi nizolarning qayd etilishi yuqoridagi fikrlarning dalilidir. Shuning uchun bunday holatlarning oldini olishning yo'llaridan birinchisi – bu yoshlarni (yigit va qizlarni) oilaviy munosabatlarga psixologik jihatdan tayyorlash bo'lsa, ikkinchi yo'li – jamoatchilikni keng jalb qilgan holda mahallalarda "Oila saboqlari", "Ota-onalar universiteti" kabi ma'rifiy institutlarni joriy etish orqali ota-onalarni ham kelin va kuyov bilan munosabatga, muloqotga o'rgatishdir.

Bundan tashqari ko'plab olimlar va oila masalalari bo'yicha mutaxassislarni xavotirga solgan jihat shuki, zamonaviy oila o'zining bola shaxsini ijtimoiylashtiruvchi vazifasini yaxshi va to'liq ado etmayapti. A.Antonovning ta'kidlashicha, zamonaviy oila oilaviy turmush tarzini shakllantira olmayotganligi sababli ham o'zining bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti.[1] Bunday xulosalardan shu narsa anglaniladiki, ko'pgina yoshlar oilaviy xayotga to'liq tayyor emasligidan ko'plab ijtimoiy-psixologik muammolarga duch kelmoqdalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T.:, 2007. – 316 b.
2. Ijtimoiy psixologiya (o'quv qo'llanma). F.A.Akramova.. – T., 2007. – 166 b.
4.Qarshiboyeva, D. (2021). КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
3. Sotsiologiya semi / Pod red. *A.I. Antonova*. – M.: 2005. – S. 235.
5.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).

[1]Социология семьи / Под ред. *А.И. Антонова*. – М.: 2005. – С. 235.

6.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).

7.Usmonova, M. (2023). O‘SMIRLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(3).

8.Usmonova, M. (2023). MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH TALABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(3), 152-155.

29.Mamaraimova, R. (2024). КАК НЕ ПОДДАВАТЬСЯ ПРОВОКАТSIЯМ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 23-29. извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9644

9.Р.У.Мамараимова. (2022). ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИЩДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНШНИНГ МАЗМУН МОХИЯТИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 513–517. https://doi.org/10.5281/zenodo.7337651

10.Mamaraimova, R. (2022). УМУМ ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5549

11.Mamaraimova, R. (2021). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2967

12.Odiljonova, X. (2024). O ‘QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *4*(1), 3-11.

13.Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *2*(5).

14.Odiljonova, X. (2024). “MEN” KONSEPSIYASIGA YONDASHUVLARNING O‘ZIGA XOSLIGI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *4*(1), 62-70.

15.Odiljonova, K. (2023). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Science and innovation*, *2*(B4), 267-272.

16. Sangirova, N. (2024). SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING ROLI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 69-73. извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9725

17.Sangirova, N. (2024). ШАХСДА ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИНИНГ ЎЗИНИ-ЎЗИ ИДРОК ЕТИШ БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИ МУАММОЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 74-81. извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9749

18.O'tamuradova, G. (2024). БЕРУНИЙНИНГСОҒЛОМ АВЛОД ТАРБИЯСИ ҲАҚИДАГИ ПСИХОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 95-103. извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9764
19.Mamaraimova, R. (2024). ПСИХОЛОГИЯ РЕЛИГИОЗНАЯ ИСПОВЕДИ И МЕДИТАЦИИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 30-36. извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9645
20.Mamaraimova, R. (2024). КАК НЕ ПОДДАВАТЬСЯ ПРОВОКАЦИЯМ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 23-29. извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9644
21.Ахмедова Насиба Ачиловна. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОИЙ КОМПИТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 529–532. https://doi.org/10.5281/zenodo.7337671
22.Р.У.Мамараимова. (2022). ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНШНИНГ МАЗМУН МОХИЯТИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 513–517. https://doi.org/10.5281/zenodo.7337651
23.Mamaraimova, R. (2022). УМУМ ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5549
24.Mamaraimova, R. (2021). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2967
25.Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР УЗЛУКСИЗЛИГИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2).
26.Qarshiboyeva, D. (2021). Importance of psychological knowledge in learning foreign languages. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *1*(4).
27.Imomqulova, F. U. B., & Qarshiboyeva, D. B. (2022). KO 'P VA YOLG 'IZ FARZANDLI OILADAGI FARZANDLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINING O 'ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 4-2), 1142-1146.
28.Qarshiboyeva, D. Improving Family Literacy Relationship depending on psychological education at school and family environment.
29.Qarshiboyeva Dilfuza Burliyevna, & Babayeva Nodira Xolbek qizi. (2023). INTELLEKT VA KREATIVLIK. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, *2*(12), 240–243. Retrieved from

https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/3079
29.Qarshiboyeva, D., & Po‘latov, J. (2023). MILLIY QADRIYATLARNING TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1). извлечено от https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7920
30.D. Karshiboeva, N. Yakhshilikova, & A. Habibullaev (2023). USAGE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL METHODS IN EDUCATION. Science and innovation, 2 (B4), 231-236. doi: 10.5281/zenodo.78260317826031
31.Qarshiboyeva, D. (2022). ҚАДРИЯТЛИ ТЕРМИНОЛОГИЯНИНГ АСОСИЙ ПАРАДИГМАЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *2*(5).
32.Qarshiboyeva, D. (2022). БАРКАМОЛ ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИ ЮКСАЛИШИДА ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *2*(2).
33.Каршибоева, Д. (2022). Educating young teachers in sense of mental view as an example of teaching foreign languages. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(3), 257-258.
34.Каршибоева, Д. Б., & Кодирова, М. К. (2021). КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ. *Интернаука*, *6*(182 часть 1), 46.